

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**

**“HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL  
QILISHNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA  
YECHIMLAR”**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ НА  
СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И  
РЕШЕНИЯ**

**PROSPECTS OF ORGANIZATION OF PHYSICAL  
EDUCATION AND SPORTS: PROBLEMS AND  
SOLUTIONS**

**Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman**

**2022 yil 28-29 aprel**

**Buxoro - 2022**

- kichik maktabgacha yoshda lokomotor harakatlar koordinatsiyasi va muvozanatni saqlash mexanizmi allaqachon ishlab chiqilgan va nisbatan mustahkam o'zlashtirilgan, biroq, oddiy yurish impulsining biodinamik tuzilmasi xali shakllanmagan bo'ladi.

- 4-6 yoshli bolalarda harakat koordinatsiyasi rivojlanishining darajasi xali past. Harakat ko'nikmalari indikativ, shuningdek, ortiqcha harakat reaksiyalari fonida shakllanadi, farqlash qobiliyati past bo'ladi. Maktabgacha yoshda murakkab sport turlarida jismoniy mashqlar texnikasini dastlabki egallash uchun shart-sharoit yaratiladi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatida rivojlangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishining ahamiyati to'g'risida rivojlangan hamfikir haqida gapirsak, bu davrda asab-mushak tizimi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari rivojlanishiga asoslangan barcha organlar va tizimlar tez rivojlanishi kuzatiladi, shu sababli bolaning funksional imkoniyatlari rivojlanib boradi.

**Xulosa.** Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, chaqqonlik qobiliyatini rivojlantirish muammosi chuqur nazariy va tajribaviy ishlanmalarga muhtoj. Biz chaqqonlik qobiliyatining fiziologik va psixiy mexanizmlarini o'rganishimiz, turli yosh va jinsdagi bolalarda ushbu sifatni rivojlantirish darajasini aniqlashimiz, chaqqonlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali vosita va uslublarini ishlab chiqishimiz va tajribaviy asoslashimiz muhimligini ko'rsatmoqda.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

2. Salamov R.S. "Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari". 2 tom. Darslik. ITA-PRESS. T. 2015 yil. 181 bet.

3. N.G.Ozolin, D.P.Markov. "Yengil atletika", Toshkent: 1971 yil. 176 bet.

4. Kuramshin Yu.F. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. Uchebnik. Moskva. – 2010 g.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERTALABKI GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING O'RNI**

**10.53885/edinres.2022.56.36.105**

**Salimov G'ayrat Muhamedovich**

*BUXDU. Jismoniy madaniyat fakulteti professori.*

**Normatov Xasan Isroil o'gli**

*JDPI Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi yo'nalishi I kurs magistri.*

*Тел: +998883281000*

*anvarhasanov11111@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastika mashg'ulotlarni tashkil etish haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ertalabki gimnastika, umumiy chidamlilik, estetik tarbiya, ilk qadam, nafas sistemasi, harakat ko'nikmalari.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается организация занятий гимнастикой в дошкольных учреждениях.

**Ключевые слова:** Утренняя гимнастика, общая выносливость, эстетическая подготовка, первый шаг, дыхательная система, навыки движения.

**Annotation.** This article discusses the organization of gymnastics in preschool institutions.

**Key words:** Morning exercises, general endurance, aesthetic training, first step, respiratory system, movement skills.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimizning, barkamol inson yani jismonan baquvvat va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyati va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorini to'laqonli amalga oshirish, qarorda belgilangan vazifalarning bajarilishi natijasida barkamol shaxs tarbiyasida muxim ahamiyat kasb etuvchi sa'yi harakatlar tizimida bolalarning jismoniy rivojlanishining

muxim bosqichi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor berish mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining bugungi kundagi eng muxim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

**“Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.**

Dasturda maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish;

- 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish;

- Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish;

- **Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish;**

- Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish;

- 2022—2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish;

- Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish;

- **Maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash;**

Maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish [2].

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mussasalarida bolalarning jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasiga talablar oshirilmoqda. “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim mussasasining Davlat o‘quv dasturida belgilangan. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari qaratilgan talablarida:

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlangandan so‘ng 6-7 yoshli bola

- o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;

- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarda mayda harakat ko‘nikmalaridan foydalanadi;

- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

- shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;

- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

- xafsiz xayotiy asoslari qoidalariga rioya qiladi;

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishida bolalar o‘z imkoniyatlaridan va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda faollik ko‘rsatadi [3].

Maktabgacha ta'lim mussasalarida tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan sportga oid ko‘ngilochar mashqlar. Harakatli o‘yinlar jismoniy mashqlar, sayrga olib chiqishlar, gimnastika turiga xos mashg‘ulotlar tavsiya etiladi. Gimnastik mashqlardan unumli foydalanish bolalarni barcha bajaradigan harakatlarni aniq va ravshan bajarishga odatlantiradi. Ertalabki gimnastikaning ahamiyati rang-barang u organizmning hayot faoliyatini yaxshilaydi. Ertalabki gimnastika to‘g‘ri qaddi-qomatni tarbiyalashga ta’sir etib, nafas olishni chuqurlashtiradi, qon aylanishini kuchaytiradi, modda almashishiga yordam beradi [4].

Ertalabki gimnastika bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatini oshishga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. Bolalarning jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki derazalari ochiq xonada o‘tkaziladi. Ertalabki gimnastika majmuasi uchun mashqlar tanlanadi. Tanlab olingan mashqlar har kuni foydalanish uchun kompleks holda tuziladi. Kompleks uchun mashqlarni tanlash organizmning hayot faoliyatini oshirishni ko‘zda tutadi.

Sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun ertalabki gimnastika aniq belgilangan vaqtda o‘tkazilishi zarur. Ertalabki gimnastika birinchi kichik guruxdan boshlab, joriy etiladi. Har kuni ertalabki gimnastika majmui odatda 7 kun davom etadi. Bu vaqt ichida majmuaga mashq vazifalariga yaqin variantlar kiritilishi, foydalaniladigan qo‘llanmalar o‘zgartirilishi mumkin. Gimnastikaning har bir gurux bilan o‘tkazish izchilligi umuman tartibga ko‘ra belgilanadi [5].

Turli yoshdagi bolalarni barcha umumiy bo‘lgan mashqlarni bajarish uchun birlashtirish mumkin emas, bunday hollarda yosh jixatdan kichik bolalar birmuncha kattaroq bolalarga mo‘ljallangan qiyin

mashqlarni bajaradilar va toliqib qoladilar, katta yoshlilar esa kichkintoylarga mo'ljallangan mashqlarni bajararlarda ularning topshiriqlarga nisbatan qiziqishlari yo'qoladi va tegishli jismoniy yuklama olmaydilar. Bolalarda erta yoshdan boshlab ertalabki gimnastika mashqlarini bajarish odatini shakllantirish zarur, Ertalabki gimnastika mashqlarini 3-4 yoshdan boshlab o'rgatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy chidamliligini aniqlashga doir tadqiqotlar (yugurish hamda sakrashga oid mashqlar misolida) bu yoshdagi bolalarning yurak-qon tomir va nafas sistemasini qo'shimcha imkoniyatlari yetarli darajada ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa o'rinda shuni takidlash joizki xozirgi sharoitda ta'lim bilan tarbiya birligini, bolalarning g'oyaviy siyosiy, mexnat, axloqiy, estetik tarbiyasi va jismoniy rivojlanishiga aloxida yondashish maktabgacha ta'lim mussasalarida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish amaliyotida mashg'ulotni samarali o'tkazishda kattalarning munosabati juda muxim, ko'tarinki kayfiyat bardamligi, faol harakatlarni to'g'ri ko'rsatmalar bolalar faolligini oshiradi, tez tolqishlarni oldini olish g'oyat muxim vazifadir. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha ta'lim mussasasi tarbiyachisi, uslubchisi jismoniy tarbiya instruktoridan katta ma'suliyat talab etadi. Buning uchun "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim Davlat o'quv dasturini o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishni, tegishli bilimlar berishni tashkil etishni pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2016 yil 29 dekabrda 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qarori Toshkent 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi Toshkent 2018.
4. T.Usmonxo'jaev, X.Meliev Maktabgacha ta'lim mussasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quv qo'llanma Toshkent 2004.
5. F.Q. Axmedov Harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'rgatish yo'llari Toshkent 2009.

## **BOSHLANG'ICH SINIF JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH**

### **10.53885/edinres.2022.32.56.106**

#### **Sh.I.Davronov, BuxDUPI magistranti**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchining maqomi va nufuzini oshirish chora-tadbirlari mavzusida bo'lib o'tgan videoselektor majlisida maktab ta'limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga va umumxalq harakatiga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat – ehtirom ko'rsatishi jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko'tarishi zarur ekanligi belgilandi.

Bugun boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlarining sifatiga e'tibor berish, o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish oldimizda turgan asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish – O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining bosh maqsadini asosini tashkil qiladi. Mustaqillik yillarida barkamol avlod g'oyasi asosida mazkur davlat siyosatiga molik muammoning ijtimoiy-huquqiy negizi yaratildi.

Ma'lumki, sog'lom turmush tarzi keng ma'noli tushuncha bo'lib, u unumli mehnat qilish, faol dam olish, sport bilan doimiy shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shahsiy kasbiy va psixogigienaga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, zarurli odatlardan o'zini tiyish, har yili shifokor ko'rigidan o'tib turish va sog'lom oilani shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Shuningdek sog'lom turmush tarzi bu shaxsning sog'lom oilani shakllantirish va sog'lom farzand ko'rish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarida ham o'z ifodasini topadi. Bugungi kunda oliy ta'limda talaba-yoshlarni intellektual, kasbiy, ahloqiy, madaniy rivojlanish talablarini qondirishda ulardagi sog'lom turmush tarzi, borasidagi bilim, ko'nikmalarni, reproduktiv madaniyatni shakllantirish ta'lim maqsadlarining asosiy qismi bo'lib hisoblanmoqda xususan, pedagogik kasb doirasidagi mutaxassislarda. Xo'sh buning zaruriyati nimada?

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan keng foydalanib kelinayotgan bir paytda onalar xastalıkları, bolalar o'limi, zaif, nogiron bolalarning tug'ilishi miqdorining ortib borayotganligi, onalar va bolalar salomatligining yomonlashuvi kabi noxushliklarning ham kuzatilayotganligi bevosita oila masalalariga, onalar va bolalar salomatligiga, sog'lom onalardan sog'lom farzandlarning tug'ilishi masalasiga alohida e'tibor berishni, yoshlarni, hali oila qurib

ulgurmasdanoq ularni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlash bilan bir qatorda ularda oilada farzandlarning dunyoga kelishi va shu bilan bog'liq masalalarga oid ilmiy asoslangan bilimlarini o'z vaqtida va yuqori saviyada berishni taqozo etadi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, katta tanaffusdagi o'yinlar, darslardagi jismoniy tarbiya daqiqalar, sport to'garaklari mashg'ulotlari, kun tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari va bayramlardan iborat bo'ladi.

Ertalabki badantarbiya bilan bolalarda darslarga jismoniy tayyorgarlik shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan darslarda jismoniy tarbiya daqiqalar o'tkazish ular tana qomatini to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi hamda aqliy va ruhiy charchashlarini tarqatadi.

Katta tanaffuslardagi harakatli o'yinlar o'quvchilarni jismoniy harakatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib boradi. Sport to'garaklardagi mashg'ulotlar yordamida o'quvchilarda sport turlari harakatlarni malaka va ko'nikmalari shakllanadi. Sport musobaqalari va bayramlarida o'quvchilar o'zaro bellashib sport turlari bo'yicha jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklarini namoyon qiladilar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini zamonaviy uslublarda tashkil etishish o'quvchilarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga ommaviy jalb etilishini hamda sog'lom tumush tarzini shakllantirishni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T. 2020 y 23 sentabr.
2. Muminova F. O'quvchilarda sog'lom hayot tarzi ko'nikmalarini shakllantirish omillari. Maktab va hayot №7, 2002. – 20-21 b.
3. Davronov N. I. DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF CHILDREN IN THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 3.

## **JISMONIY TARBIYA – SOG'LOM JAMIYAT POYDEVORI**

**10.53885/edinres.2022.32.34.107**

**Sabirova Nasiba Rasulovna**

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi  
va uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Ismoilov Shahzod Hamzayevich**

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti talabasi

**Сабирова Насиба Расуловна**

Преподаватель кафедры теории и методики  
физической культуры  
Педагогического института  
Бухарского государственного университета

**Исмоилов Шахзод Хамзаевич**

Студент педагогического института  
Бухарского государственного университета

**Sabirova Nasiba Rasulovna**

Teacher of the Department of Theory and  
Methods of Physical Culture of  
the Pedagogical Institute of Bukhara State University

**Ismoilov Shakhzod Hamzayevich**

Student of the Pedagogical Institute of Bukhara State University

**E-mail: [sabirova.nasiba87@mail.ru](mailto:sabirova.nasiba87@mail.ru)**

**Annotatsiya.** Maqolada jismoniy tarbiya va sportning inson hayotidagi o'rni, uning afzalliklari va sog'lom turmush tarzining tarkibiy asoslari haqida so'z boradi.

**Аннотация.** В статье рассматривается роль физической культуры и спорта в жизни человека, их польза и основы здорового образа жизни.

**Annotation.** The article discusses the role of physical culture and sports in human life, its benefits and the basics of a healthy lifestyle.

**Kalit so'zlar:** salomatlik, turmush tarzi, shaxsiy gigiyena, kasalliklar.

**Keywords:** health, lifestyle, personal hygiene, diseases.

**6-sho'ba: MTT tarbiyalanuvchilarini rivojlanishida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati..... 500**

Murodov Farxat Muxmudjonovich. IMKONIYATI CHEKLANGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASHDA TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV .....	500
Bobomurodov Abdurafik Egamurodovich. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FUNKSIONAL TIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH VA HARAKATLANISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.....	502
Salimov G'ayrat Muhamedovich, Normatov Xasan Isroil o'gli. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERTALABKI GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING O'RNI.....	504
Sh.I.Davronov, BOSHLANG'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH .....	506
Sabirova Nasiba Rasulovna, Ismoilov Shahzod Hamzayevich. JISMONIY TARBIYA – SOG'LOM JAMIYAT POYDEVORI .....	507
Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi. Rahimova Jamila Rustam qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING AHAMIYATI.....	509
Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi. Rahimova Jamila Rustam qizi. KUNI UZAYTIRILGAN GURUHLARDA JISMONIY SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINING AHAMIYATI.....	512
Рашидов Хуршид Каримович. ОИЛАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ МУЎИТНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ-МЕЪЁРИЙ АСОСЛАРИ .....	514
А.Т.Тошев. ШАХМАТНИ ИНДИВИДУАЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ.....	516
Murodov Farxod Maxmudovich, Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHNI YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN (TIFLO) BOLALARNING JISMONIY TARBIYASI.....	520
Erkinxojaeva Gulnoza Eldorxoja qizi. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERTALABKI BADANTARBIYA MASHQLARINING ASOSIY SHAKLLARI.....	523
Jo'raqulova E'zoza Erkin qizi. HARAKATLI O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY XUSUSIYATLARI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....	525
Raximova Gulhayo Ziyodulla qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASH XUSUSIYATLARI.....	527
Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM METODLARI.....	529
Гулбоев Акбар Тўхтаевич. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРНИ РИВОЖЛАНИШИДА ЖИСМОНИЙ МАШГУЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ.....	531
Бобоева Зарифа Жаҳонкуловна, Бахшуллаева Малоҳат Бахтиёр қизи, Баймурадов Раджаб Сайфитдинович. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. ....	533
Г.Я.Гревцева, Л.С. Элибаева. ВОСПИТАНИЕ МОРАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЧЕЛОВЕКА В «КАБУСНАМЕ».....	536
Ataxo'jayev Valixo'ja. BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISH SOG'LOM KELAJAK POYDEVORI.....	538
Xudoyberganov Nodirjon. SOG'LOM BOLA – SOG'LOM OILA MEVASI, BUGUNIMIZ SAODATI, KELAJAGIMIZNING KAFOLATI.....	540
<a href="#">A.T.Toshev</a> . MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOMLASHTIRISH GIGIYENIK OMILAR BOLALAR ORGANIZMINING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MUHIM VOSITA SIFATIDA.....	542
Мухитдинова Нигора Махриддиновна, ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР - БОЛАЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА САМАРАЛИ ВОСИТА .....	545
Афраимов А.А. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ .....	546
Саидмуродова Гавҳар Наврўзовна. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МИЛЛИЙ ВА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИ ЎТКАЗИШ МЕТОДИКАСИ .....	548.